

Methods Of Educating Students In Educational Institutions In The Spirit Of Loyalty To The Homeland

Mirzakhmedov Sherzod Maksudovich,

Teacher of Uzbekistan State University of World Languages

Annotation

The article discusses the content and essence of educating students in patriotism, the forms and methods of developing patriotic ideas in them.

Keywords: Homeland, patriotism, spirituality and enlightenment, national education, values, education and upbringing.

Annotatsiya

Maqolada talaba-yoshlarni vatanparlikka tarbiyaning mazmun-mohiyati, ularda vatanparvarlik g'oyalari rivojlantirishning shakl va usullari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, ma'naviyat va ma'rifat, milliy tarbiya, qadriyatlar, ta'lim va tarbiya.

Vatan tushunchasi keng ma'noda va tor ma'noda ham qo'llaniladi. Keng ma'noda xalq vakillari yashab turgan, ularning avlodlari azaldan yashab kelgan hududlari nazarda tutilsa, tor ma'noda odamning tug'ilib o'sgan joyi, mahalla ovul tushuniladi. Vatan tushunchasi asrlar davomida siyosiy-iqtisodiy rivojlanish munosabatlari bilan o'zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib boradi. Qadimgi zaman donishmandi, hamma belgili notiq Tsitseron «Mehr-muhabbat to'g'risida barcha tushunchalarimiz «Vatan» degan bitta so'zga birikkan» desa, buyuk shoir Shiller «Vatandan sevimli hesh narsa bo'lishi mumkin emas» deb Vatanning buyukligini ulug'laydi. Taniqli Venger shoiri Sh.Betefi «Umr men uchun baridan qimmat, muhabbat umrdan ham qimmat, lekin yurtning erkinligi va ozodligi uchun ikkisini qurbon etishga tayyor turaman» – deb aytgan fikri Vatanning juda muqaddas ekanligini tasdiqlaydi.

O'zini Vatan farzandi deb hisoblagan har bir inson uning iqtisodiy, ma'naviy boyliklarini avaylab-asrash, yanada ko'paytirish, Vatan qudratini mustahkamlash, uning xalqlar orasida obru-e'tiborini oshirish ishiga munosib hissa qo'shishi darkor. Ota-bobolarimiz farzandlarini yosh davridan kindik qoni tomgan Ona Vatanini sevishga, tug'ilgan erini asrashga, halol mehnat

qilishga, ota-onalarni, yoshi ulug'larni hurmat qilishga, kichiklarga mehribon bo'lishga tarbiyalab, «El qadrini mard bilar», «Mard yigit el uchun tug'iladi, eli uchun o'ladi», «Boshqa elda sulton bo'lgancha, o'z elingda ulton bo'l» deb nasihatlar berishadi. Ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dars jarayoni, darsdan tashqari turli-tuman faoliyat orqali amalga oshiriladi.

O'quvchi-yoshlarga bilim, malaka va ko'nikma beriladi. Ularga axloqiy, estetik, mehnatsevarlik tarbiya turlari orqali vatanparvarlik g'oyalari singdirilib boriladi. Shu bilan birgalikda, ular vatanparvarlik tushunchalarini hayotdan, muhitdan, badiiy va ilmiy adabiyotlar, kinofilm va spektakllar orqali ham anglab boradilar. Vatanparvarlik g'oyalari maktablarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirib borish lozim.

Bola maktab yoshiga kelgan paytlaridan boshlab o'z oilasi haqida yaxshi fikrlarning aytilishini, o'z uka-singillarini himoya qilishni, ota-onasiga mehribon bo'lishni va shunga o'xshash narsalarni xohlaydi. Bu undagi dastlabki vatanparvarlikning shakllanishidan dalolat beradi. Ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarga mehnatni sevish, mulkni ehtiyot qilish, hurmat, rostgo'ylik, sofdillik, vijdon,

kamtarlikning ma'nolarini tushuntirib borish lozim.

O'quvchi yoshlarga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xarakter hususiyatlarni tarkib toptiradi. Ularga maqsadga intiluvchanlik, o'qish va ishda matonatlik, qat'iyat, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik kiradi. Vatanparvarlik tarbiya o'quvchi-yoshlarga jamiyat tomonidan qabul etilgan normalar bilan qoidalarga muvofiq jamiyatga, tabiatga, mehnatga odamlargava o'z-o'ziga ijobiymunosabat qilishgao'rgatishninazarda tutadi. Vatanparvarlik tarbiyaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Yosh avlodda milliy istiqlol g'oyasini, Vatanni sevishni, yuqori insoniylik fazilatni tarbiyalash, aql-zakovatli bo'lishga intiltirish.
2. O'zligini anglashga va qadrlashga va uni maqtachga tarbiyalash.
3. Vatan tushunchasini, ishonch, e'tiqod va munosabatni shakllantirish.
4. A'lo xulq-atvor, ko'nikma, odat va ongli tartibni tarbiyalash.
5. Xarakter xususiyatlarini, iroda sifatlarini (maqsadga intilish, faollik, boshlovchilik, barqarorlik) rivojlantirish.

Vatanparvarlik tarbiya berishda xilma-xil usullar tavsiya etiladi:

- 1.Vatanparvarlik tarbiya o'qitish jarayoni bilan qo'shib olib boriladi. Buyuk nemis pedagogi A.V.Disterveg aytganidek, yaxshi ta'lim-tarbiya bera oladigan o'qituvchi o'quvchilarga barcha tarbiya turlarining shakllanishiga imkon yaratadi.
- 2.Vatanparvarlik tarbiya jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq. Buning uchun jamoa ahil va inoq, intizomli bo'lishlari kerak.
- 3.Tarbiyaviy ishlarning rejali bo'lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi vatanparvarlik tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.
4. Ta'lim muassasalarida ijobiy emotsional sharoit yaratish vatanparvarlik tarbiya jarayoniga ta'sir etadi. Masalan,

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, o'qituvchilar va murabbiylar bayrami, til bayrami va hokazo. O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, u milliy tarbiya muammolari, ayniqsa, milliy tafakkurning shakllanishi hususiyatlari, milliy va madaniy qadriyatlarga munosabat tushunchalari bilan bog'liq. Milliylik va zamonaviylikning uyg'unligini ta'minlamay turib, yuqorida ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Milliy tarbiya millatchilik tarbiyasi emas, aksincha milliy madaniyat xalqimizning hayotning barcha jabhalarida erishgan o'ziga xos yutuqlarini tiklash, rivojlantirishni davom ettirishning ma'rifiy vositasi bo'ldi.

Faqat milliy tarbiyagina o'quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlarini, or-nomusini va sof vijdonni, mehnatsevarlikni, ilmga chanqoqlikni, mehr-oqibatni, tashabbuskorlikni mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini boyitib, keyingi avlodlarga etkazishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar demokratik ta'lim tizimiga asoslangan bo'lib, unda olg'a surilayotgan g'oyalar quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning ma'naviy madaniyatini hozirgi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlar asosida ko'rish.
2. Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo'lishiga erishish.
3. Ma'naviy madaniyatni shakllantirishda milliylikdan yiroq va unga zid unsurlardan voz kechish.

Ta'lim-tarbiya murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, uni amalga oshirishning an'anaviy, zamonaviy uslub va vositalari mavjuddir. Bu borada ta'lim-tarbiyaning turlari ham talaygina bo'lib, ularni bir-biridan ajratilgan holatda olib borib bo'lmaydi.

Ta'lim-tarbiya tizimida vatanparvarlik g'oyasini keng qamrovda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Vatanparvarlik bu

tug'ma, irsiy xususiyat bo'lmasdan, balki muayyan ma'rifiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatda, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadigan xususiyatdir. Shu sababli, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta'lim-tarbiya ishi bo'yicha mas'ul bo'lgan ota-ona, tarbiyachi pedagoglarlar oldida turgan ulug'vor, mas'uliyatli vazifa bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda, yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish uchun ularda ilmiy izlanish, huquqiy savodxonlik, burch va mas'uliyatni chuqur his qilish, poklik, halollik, fidoyilik, mehnatsevarlik, ijodiy tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, imon, insof, diyonat, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, sadoqatlilik, shijoat, botirlik singari fazilatlarini shakllantirish lozim.

Ta'kidlash zarurki, tarbiya vositasi sifati ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan ham foydalanib yoshlarga individual va jamoaviy ta'sir o'tkazish samarali natija beradi. Eng muhimi, bu ko'rsatilgan uslublar, birlashtirilgan holda qo'llanilib, olingan xulosalar umumiyashtirilib, tahlil etilsa, ularning aniqlik darajasi juda ham yuqori bo'ladi. Birinchi uslubda olingan ma'lumot, ikkinchi uslub yordami bilan to'ldiriladi, bu mantiqiy bir-biri bilan bog'langan uslublar asosida pedagog-tarbiyachi xulosa chiqaradi va yosh avlodda vatanparvarlik tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish ta'minlanadi. Shu bilan birga, tarbiyaviy ishlarni olib borishda jamoaning ma'naviy-psixologik xususiyatlarini bilgan pedagog-tarbiyachigina samarali natijalarga erisha oladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy-estetik jihatdan barkamol insonlar bo'lib etishishlarining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Yoshlarga vatanparlik tarbiyasini singdirishda ta'lim-tarbiya oldida bir qancha

psixologik-pedagogik masalalar ko'ndalang turibdiki, ularni quyidagicha tasniflab ko'rsatishimiz mumkin: birinchidan, ta'lim-tarbiyaning metodologik asosini, milliy tarbiya g'oyasini ilmiy jihatdan mukammallashtirish; ikkinchidan, ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonining ilmiy psixologik-pedagogik asosini yanada mustahkamlash. Chunki ta'lim-tarbiya ijtimoiyligi bilan xarakterlanib, doimiy tarzda takomillashtirishni talab etadi. Yoshlarga bugungi zamon ruhida ta'lim-tarbiya berish davr talablaridan hisoblanib, mamlakatimizning mustaqil siyosati maqsad va mazmunini tushunadigan, ijtimoiy jihatdan etakchi o'rinlarni egallaydigan mutaxassislarni kamol toptirish lozim. Shu maqsad sari yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, ularning tezkor hamda ijtimoiy-siyosiy tayyorgarliklarining yuqori darajada bo'lishini ta'minlash zarur.

Xalqimiz «Vatan uchun jon berish mumkin» deb, Vatan uchun o'tga tushgan mardlarini, elining or-nomusini himoya qilgan, uning obodonligi, ma'naviy rivojlanishi uchun jon ayamagan farzandlarning ismlarining mangulashtirilayotganligi Prezidentimizning ko'raganlik siyosatidan dalolat beradi. Har qanday holatda bo'lsa ham etishmovchilik, kamchilik bo'lsa ham Vatanni yomonlash tuqqan onani yomonlash bilan barobardir. Agar elda qancha kamchilik bo'lsa u Vatanning emas, farzandlarining kamchiligi. Uni tuzatish, yaxshilash Vatan oldida hammaning farzi va qarzidir.

Vatanga muhabbat – vatanparvarlikning ilk natijasi. Vatanni yurakdan avaylab va sevis kerak. Vatanni cheksiz sevis, undagi barcha xolatlari bilan yutuqlari, kamchiliklari bilan ko'sha sevish bo'lib topiladi. Jiyrenshe chechan «O'z uyim – o'lan to'shagim» desa, Ajiniyoz «Qurboqa bulbulim, jekanim – bog'im» deb o'z Vatanga yuqori baho beradi. Vatanni cheksiz sevish, ardoqlash bilan birga uni

yovlardan jon ayamay himoya qilish har bir farzandning burchidir. Tuqqan onasini boshqaning yovuzligidan himoya qilmagan bolani farzandim demaganidek, Vatanni himoya qilishmagan, uning istiqboli uchun kurashmagan bolani farzandim deb bo'lmaydi.

Xulosa. Vatanni sig'inish maskani kabi muqaddas sanash, Vatanni har kanday dushmanlardan himoya qilish, millat, xalq ozodligi yo'lida kerak bo'lsa jonini fido qilish, halol va fidokor mehnatning asosida elning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shish, Vatanning tarixi, tili, adabiyoti, san'ati, madaniyatini, otabobolarining meroslarini etuk bilish va ularni xalqaro muhitga ko'rsatishda faol ishtirok etish, davlat ramzlarining ahamiyatini etuk bilish va ular bilan maqtanish ham vatanparvarlikning negizi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- Базарбаев Ж., Далетова ц. Эдепнама. – Н., 1992.
- Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоц керак. – 10 т. – Т., 2002.
- Ибрагимов А., Султанов Х., Жураев Н. Ватан туйуси. – Т., 1996.
- Насрхужаев Р.Ш., Лафасов М., Зарипов М. Маънавият асослари. – Т., 2006.
- Руухыйлыц тийкарлары / акад. Ж.Базарбаев илмий раҳбарлигида – Н., 2009.
- 6.Педагогика / А.Ц.Мунавваровнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
- Orazimbetov Ye.K. (2023). Basic Instructions in Educating Youth to Patriotism on the Basis of Karakalpak folk pedagogy. Miasto Przyszoci, 36, 296-300. Retrieved from.
- Насрхужаев Ш., Лафасов М., Зарипов М. Маънавият асослари. – Т., 2006. - 233 б.